


NAVOIY VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2020-yil yanvar-fevral, dastlabki ma'lumotlar)

Navoiy viloyati bo'yicha 2020-yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 874,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 3,3 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 92,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 86,4 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 782,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 105,8 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 48,6 mlrd. so'mni (2019-yilning mos davriga nisbatan 4,7 % ga kamaygan) tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan viloyat hududlari qatoriga Navoiy shahri, Karmana tumani, Qiziltepa tumani, Xatirchi tumani va Zarafshon shahrini misol keltirishimiz mumkin.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari



2019-yilning mos davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish Navoiy shahri, Zarafshon shahri, Xatirchi tumani, Karmana tumani, Uchquduq tumanlarida qayd etildi. Shuningdek, eng yuqori ko'rsatkich viloyatda Navoiy shahriga va aksincha eng past ko'rsatkich Tomdi tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 2019-yilning mos davriga nisbatan 86,4 % va 92,6 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 10,6 % ulushiga to'g'ri keladi.

Yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi


	Jami, mlrd. so'm	Jamidan:			
		Yirik korxonalar, mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari, mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, foizda
Navoiy viloyati	874,7	92,6	10,6	782,1	89,4
Navoiy sh.	315,6	86,4	27,4	229,2	72,6
Zarafshon sh.	75,4	1,8	2,4	73,6	97,6
<i>tumanlar:</i>					
Karmana	139,7	0,4	0,3	139,3	99,7
Konimex	22,4	0,2	0,7	22,2	99,3
Qiziltepa	103,5	1,0	1,0	102,5	99,0
Navbahor	45,1	0,1	0,3	45,0	99,7
Nurota	32,4	0,3	1,0	32,1	99,0
Tomdi	6,6	0,04	0,6	6,6	99,4
Uchquduq	35,2	0,2	0,7	35,0	99,3
Xatirchi	98,8	2,2	2,2	96,6	97,8

Shuningdek, yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki chakana tovar aylanmasi tahlil qilinganida shahar va tumanlar orasida eng yuqori chakana savdo tovar aylanmasiga ega bo'lgan hudud bu Navoiy shahri bo'lib, uning tovar aylanmasi 315,6 mlrd. so'm (2019-yilning mos davriga nisbatan 104,7 %) ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra 782,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 5,8 % ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 89,4 % ga teng kelmoqda.

Shuningdek, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining 2019-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan o'sish sur'ati yuqori bo'lgan hududlar ichida Navoiy shahri, Zarafshon shahri, Karmana tumani, Qiziltepa tumani va Navbahor tumanini misol keltirishimiz mumkin.

Chakana savdo tovar aylanmasida yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi, foizda



2020-yilning yanvar-fevral oylari tahliliy natijalariga qaraganda, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi 89,4 % ni tashkil etib, mazkur ko'rsatkich bo'yicha shahar va tumanlar orasida Karmana (99,7%), Navbahor (99,7%), Tomdi (99,4%), Konimex (99,3%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 10,6 % ni tashkil etib, eng katta ulush asosan Navoiy shahrida (27,4 %), Zarafshon shahri (2,4 %) va Xatirchi tumanida (2,2 %) kuzatilgan.

Quyidagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, mulkchilik shakli bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmining asosiy qismi nodavlat mulki hisoblanib, 2020-yil yanvar-fevral oylarida 870,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2019-yilning mos davriga nisbatan 99,8 foizdan 99,5 foizga kamaydi.

Mulkchilik shakli bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm

	Jami	Nodavlat mulki	Davlat mulki
Navoiy viloyati	874,71	870,67	4,04
Navoiy sh.	315,60	311,59	4,01
Zarafshon sh.	75,42	75,42	-
<i>tumanlar:</i>			
Karmana	139,69	139,66	0,03
Konimex	22,37	22,37	-
Qiziltepa	103,51	103,51	-
Navbahor	45,07	45,07	-
Nurota	32,40	32,40	-
Tomdi	6,60	6,60	-
Uchquduq	35,25	35,25	-
Xatirchi	98,80	98,80	-


Mulkchilik shakli bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi ulushi



Xuddi shuningdek, mulkchilik shakli bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmidagi davlat mulki 2020-yil yanvar-fevral oylarida 4,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,2 foizdan 0,5 foizga ko'paydi.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Navoiy shahri (36,1 foiz), Karmana tumani (16,0 foiz), Qiziltepa tumani (11,8 foiz), Xatirchi tumani (11,3 foiz), va Zarafshon shahri (8,6 foiz) chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Chakana savdo tovar aylanmasida viloyat hududlarining ulushi, foizda



Jumladan, 2020-yilning yanvar-fevral oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,5 % ni tashkil etib, 22,3 mlrd.so'mga yetdi yoki 2019-yilning mos davriga nisbatan 1,3 % o'sishga erishildi.


Bunda jami savdo aylanmasining 94,0 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari ulushiga to'g'ri kelmoqda.

Hududlar kesimida ovqatlanish tashkilotlari savdo aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari



Quyidagi diagrammadan ko'rinib turibdiki, mulkchilik shakli bo'yicha ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi hajmining asosiy qismi nodavlat mulki hisoblanib, 2020-yil yanvar-fevral oylarida 21,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2019-yilning mos davriga nisbatan 97,4 foizdan 94,2 foizga kamaydi.

Mulkchilik shakli bo'yicha ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi ulushi



Mulkchilik shakli bo'yicha ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi hajmi, mlrd. so'm

	Jami	Nodavlat mulki	Davlat mulki
Navoiy viloyati	22,28	20,99	1,29
Navoiy sh.	8,81	7,55	1,26
Zarafshon sh.	3,00	3,00	-
<i>tumanlar:</i>			
Karmana	4,27	4,24	0,03
Konimex	0,41	0,41	-
Qiziltepa	1,76	1,76	-
Navbahor	0,64	0,64	-
Nurota	0,50	0,50	-
Tomdi	0,25	0,25	-
Uchquduq	0,84	0,84	-
Xatirchi	1,80	1,80	-

Xuddi shuningdek, mulkchilik shakli bo'yicha ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi hajmidagi davlat mulki 2020-yil yanvar-fevral oylarida 1,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2019-yilning mos davriga nisbatan 2,6 foizdan 5,8 foizga ko'paydi.

Viloyatda yirik umumiy ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi hajmi

	Jami, mlrd. so'm	2019-yilning mos davriga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar		
			Hajmi, mlrd. so'm	2019-yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Jamiga nisbatan ulushi, foizda
Navoiy viloyati	22,28	101,3	1,34	62,9	6,0
Navoiy sh.	8,81	95,4	1,31	62,2	14,9
Zarafshon sh.	3,00	106,3	-	-	-

tumanlar:

Karmana	4,27	106,1	0,03	140,4	0,6
Konimex	0,41	104,2	-	-	-
Qiziltepa	1,76	105,3	-	-	-
Navbahor	0,64	104,5	-	-	-
Nurota	0,50	105,2	-	-	-
Tomdi	0,25	103,5	-	-	-
Uchquduq	0,84	102,9	-	-	-
Xatirchi	1,80	105,6	-	-	-

Shuningdek, ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining savdo aylanmasi 1,3 mlrd. so'mni (2019-yilning mos davriga nisbatan 37,1 % ga kamaygan), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining savdo aylanmasi 21,0 mlrd. so'mni (2019-yilning mos davriga nisbatan 5,4 % ga ko'paygan) tashkil etdi.

**Viloyatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
umumiy ovqatlanish sub'ektlarining savdo aylanmasi hajmi**

	Jami, mlrd. so'm	2019-yilning mos davriga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari		
			Hajmi, mlrd. so'm	2019-yilning mos davriga nisbatan, foizda	Jamiga nisbatan ulushi, foizda
Navoiy viloyati	22,3	101,3	21,0	105,4	94,0
Navoiy sh.	8,8	95,4	7,5	105,3	85,1
Zarafshon sh.	3,0	106,3	3,0	106,3	100,0

tumanlar:

Karmana	4,3	106,1	4,3	106,0	99,4
Konimex	0,4	104,2	0,4	104,2	100,0
Qiziltepa	1,8	105,3	1,8	105,3	100,0
Navbahor	0,6	104,5	0,6	104,5	100,0

Nurota	0,5	105,2	0,5	105,2	100,0
Tomdi	0,3	103,5	0,3	103,5	100,0
Uchquduq	0,8	102,9	0,8	102,9	100,0
Xatirchi	1,8	105,6	1,8	105,6	100,0


NAVOIY VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2020-yil yanvar-fevral, dastlabki ma'lumotlar)

2020-yil yanvar-fevral oylarida viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 214,0 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 29,9 foizga kamaydi. Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi hajmiga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra 161,8 mlrd. so'mni, 2019-yilning mos davriga nisbatan 94,7 % ni tashkil qildi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 75,6 % ni tashkil qilmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi esa 24,4 % ni tashkil etdi. Shuningdek, shahar va tumanlar orasida eng yuqori ulgurji savdo tovar aylanmasiga ega bo'lgan hudud bu Navoiy shahri bo'lib, uning tovar aylanmasi 107,8 mlrd. so'm (2019-yilning mos davriga nisbatan 56,8 %)ni tashkil etadi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd.so'm



Quyidagi jadval ma'lumotlari tahlili asosida viloyatda faqatgina Navoiy shahri va Xatirchi tumanida yirik korxonalar tomonidan ulgurji savdo tovar aylanmasi mavjud bo'lib, qolgan 8 ta hududda asosan ulgurji savdo tovar aylanmasi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan amalga oshirilgan.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining hajmi

	Jami, mlrd. so'm	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari, mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, foizda
Navoiy viloyati	214,0	161,8	75,6	52,2	24,4
Navoiy sh.	107,8	55,8	51,7	52,0	48,3
Zarafshon sh.	8,6	8,6	100,0	-	-
<i>tumanlar:</i>					
Karmana	57,7	57,7	100,0	-	-
Konimex	1,6	1,6	100,0	-	-
Qiziltepa	10,8	10,8	100,0	-	-
Navbahor	11,7	11,7	100,0	-	-
Nurota	1,3	1,3	100,0	-	-
Tomdi	0,3	0,3	100,0	-	-
Uchquduq	2,1	2,1	100,0	-	-
Xatirchi	12,1	11,9	98,5	0,2	1,5


Quyidagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, mulkchilik shakli bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmining asosiy qismi nodavlat mulki hisoblanib, 2020-yil yanvar-fevral oylarida 213,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2019-yilning mos davriga nisbatan 99,94 foizdan 99,92 foizga kamaydi.

Hududlar kesimida mulkchilik shakli bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm


	Jami	Nodavlat mulki	Davlat mulki
Navoiy viloyati	214,0	213,8	0,2
Navoiy sh.	107,8	107,8	-
Zarafshon sh.	8,6	8,6	-
<i>tumanlar:</i>			
Karmana	57,7	57,5	0,2
Konimex	1,6	1,6	-
Qiziltepa	10,8	10,8	-
Navbahor	11,7	11,7	-
Nurota	1,3	1,3	-
Tomdi	0,3	0,3	-
Uchquduq	2,1	2,1	-
Xatirchi	12,1	12,1	-

Xuddi shuningdek, mulkchilik shakli bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmidagi davlat mulki 2020-yil yanvar-fevral oylarida 0,2 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,06 foizdan 0,08 foizga ko'paydi.

Mulkchilik shakli bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi ulushi



Ulgurji savdo tovar aylanmasida viloyat hududlarining ulushi



Tahlil natijalariga ko'ra Navoiy viloyatida ulgurji savdo tovar aylanmasining asosini Navoiy shahridagi ulgurji savdo tovar aylanmasi tashkil qiladi va xuddi shuningdek, ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Navoiy shahri (50,4 foiz), Karmana tumani (26,9 foiz) va Xatirchi tumani (5,7 foiz) ulgurji savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi**
Tel.: (0871) 230-84-36